

**MAQSUD SHAYXZODA - O'ZBEK VA OZARBAYJON
XALQLARINING SERQIRRA IJODKORI**

Ikramova Feruza Xayrullayevna

(Toshkent Davlat Transport Universiteti dotsenti)

[*feruza.ikromova71@gmail.com*](mailto:feruza.ikromova71@gmail.com)

Imomova Mohidil Furqat qizi

(Toshkent Davlat Transport Universiteti YMAE-7r guruhi talabasi)

[*mohidilimomova05@gmail.com*](mailto:mohidilimomova05@gmail.com)

Annotatsiya: Maqolada ikki yurt farzandi Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyotining yuksalishiga qo'shgan betakror ijodiyoti, shu bilan birga ikki xalqning asriy hamkorligi Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy kabi buyuklarning do'stligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Nizomiy Ganjaviy, shoir, dramaturg, adabiyotshunos olim, tarjimon va pedagog.

Annotation: The article deals with the unique work of Maqsud Shaykhzoda, a son of the two countries, which contributed to the rise of Uzbek literature, as well as the centuries-old cooperation between the two peoples and the friendship of such greats as Nizami Ganjavi and Alisher Navoi.

Keywords: Nizami Ganjavi, poet, playwright, literary scholar, translator and educator.

Ozarbajjon diyorida tug'ilib, falakning gardishi bilan o'zbek tuprog'iga kelib qolgan Maqsud Shayxzoda mustabid tuzumning tazyiq va tahdidlariga qaramay, to'lib-toshib ijod qilgan, zamonaviy o'zbek adabiy tili va adabiyoti taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan buyuk ijodkordir. U nafaqat shoir, dramaturg, adabiyotshunos olim, tarjimon va pedagoggina emas, balki tom ma'noda

mutafakkir siymo hamdir.

Taqdir shamoli Shayxzodani ko'hna Toshkentning qaynoq bag'riga bir umrga olib kelib tashlagan edi. U shu yerda oila qurdi. Shu yerda o'zbek xalqi, xuddi ozarbayjon xalqi singari, bag'ri keng, mehr-oqibatli, mehnatkash xalq ekanligini ko'rdi. Shu yerda o'zbek tilini mukammal egallab, o'zbek adibi bo'ldi, zabardast shoir, barkamol dramaturg va mutafakkir olim sifatida o'zbek xalqining qalbini zabt etdi. Uning nomi o'zbek adabiyoti tarixiga oltin harflar bilan yozildi.

Maqsud Shayxzoda shunday asarlar yaratdiki, bu asarlar o'zi bilan birga insoniyatni ham kelajak sari yetakladi. Shu o'rinda quyidagi satrlarni keltirib o'tishni lozim topdik, chunki bu satrlar shoirdan meros bo'lib qolgan qo'lyozmalarda keltirilmagan ekan. Ulug' Temur avlodiman

Xoh bo'lsam-da ozari,

Tabarrukdir

ziyosatgoh Menga

uning mozori.

Ulug'bekning poyin izlab

Zarafshondan

o'tganman,

Samarqandning tarixini

Yuragimga bitganman.

Tarix hukm etgan bu

yurt - O'zbek elin diyori,

Elkasida ulug' tarix,

Hech toliqmas madori.

Shoirning oltindan qimmat misralari o'zbek diyorining Samarqandu Zarafshoniga uning tarixiga bag'ishlanadi. Maqsud Shayxzoda o'zi ozar o'g'loni bo'lsa ham ulug' Temur avlodi ekanligidan faxrlanish tuyg'usini she'riy bayon qiladi. Uning "Kurash nechun?" degan she'ri ikkinchi jahon urushi yillari hali ommaviy safarbarlik e'lon qilinmay turib, ko'plab ko'ngillilar o'z xohishlari bilan

frontga borib jang qilish istaklarini bildirayotganlar uchun yozilgan. Shayxzoda ham o'z she'ri bilan frontga yo'l olgan vatandoshlarining jang maydonlarida nima uchun kurashajaklarini bunday o'tli so'zlar bilan tushuntirishga intildi: Bu kurash hayotning qonuni uchun,

Bu chorak asrning yakuni
uchun... Pushkinning dostoni,
Tolstoy uchun, Vaqtincha
to'xtagan xolis to'y uchun...

Bu elning go'dagi, choli, go'zali,
Navoiy misrai, Bobur g'azali,
Dutorning bermalol unlari
uchun, Ijodning muhtasham
kunlari uchun,

Ulug'bek dahmasi, Xorazm nag'masi,
Qo'shiqlar, raqslar... hamma-hammasi...

Kuni kecha xalqning bunyodkorlik ishlaridan rag'bat olib, tinch turmush manzaralarini tasvirlagan shoirning nigohi endi urush maydonlarida jon olib, jon berayotgan jangchilarga qadaldi. Bu jangchilarning qaysi respublika yo, shaharda tug'ilgani, qaysi xalq yo, millatga mansubligi uning uchun farqsiz edi. U: "Adolat tantana qilib, Berlinda dushman ustidan sud bo'lajagi, tez kunlarda g'alaba kuni kelajagi" haqida yozdi.

Ammo, bugun shoirning tarixiy vatani bo'lmish Ozarbayjonda davom etayotgan urush aynan "Kurash nechun?" degan savolga qanday javob bera oladi. Asrlar osha yonma yon qo'shni bo'lib yashab kelgan ikki buyuk xalq olib borayotgan kurashida mantiq ko'rinmaydi. Bekorga to'kilayotgan qon, begunoh odamlar qurbon bo'layotgani, ayollar beva, bolalar yetim qolayotgani juda achinarlidir. Shu nuqtai nazarda adibning "Qo'llar" she'ri yodimga tushadi. Ushbu she'rni qayta mutolaa qilar ekanman, adib naqadar kishilar ruhiyatini yaxshi o'rgangan, ularning fe'l atvorlarini bilgan donishmand ekaniga yana bir bora amin

bo'ldim. Inson qo'llari bilan yaratib, o'sha qo'llari bilan vayron qilishi mumkinligi juda yorqin ifoda qilgan shoir mahoratiga qoyil qolmasdan iloji yo'q. Qo'llar bor – muloyim, g'oyat shafqatli, Qo'llar bor – ayovsiz, yovuz, shiddatli. Qo'llar bor – ishyoqmas, lapashang, tanbal, Qo'llar bor – tezligi bilinar dangal.

Qo'llar bor – quyilar undan
yaxshilik, Qo'llar bor – tirnaydi,
yovlik, vahshiylik.

“Siz qaerda o'qigansiz? Bunday falsafiy fikrlashga qanday erishgansiz? – degan savollariga javoban Shayxzoda deydi: - Men Ozarbayjon tuprog'ida tug'ilib, o'zbek diyorida ulg'ayganman. Ozarbayjon ham, O'zbekiston ham Sharq madaniyatining o'choqlaridan biri. Sharq jahon madaniyatiga Firdavsiy va Jomiy, Nizomiy va Navoiy singari yuzlab donishmand shoir va olimlarni etkazib bergan. Sharqda faqat shoirlargina emas, Beruniy va Ibn Sino singari olimlar ham serqirra iste'dod egalari bo'lishgan. Ular biror dorilfununda o'qimagan. Ularning hammasi mutolaa yo'li bilan ulkan siymolar bo'lib yetishishgan”.

Shu o'rinda aytish joizki, mumtoz adabiyotimiz tarixida Ozarbayjon adabiyotining buyuk siymolaridan biri shoir Nizomiy Ganjaviy ijodining o'zbek adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatganiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, Qutb Xorazmiy

Nizomiy ta'siri ostida o'zining “Xusrav va Shirin” dostonini yozgani ma'lum. Shuningdek, o'zbek adabiyotining mumtoz namoyandalari bo'lmish Lutfiy, Xorazmiy, Durbek, Gadoyi, Atoyi, Sakkokiy kabilar ijodida Ozarbayjon adabiyotining ta'siri seziladi. Haydar Xorazmiy ilk bor Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasini”) asari ta'sirida o'zining “Maxzan ul-asror” asarini yozgani barchamizga ma'lum. Nafaqat o'zbek, balki butun turkiy xalqlar adabiyotining buyuk namoyandasi, mutafakkir shoir, olim, davlat va jamoat arbobi, ilm va adabiyot homiysi bo'lmish Alisher Navoiy Nizomiy Ganjaviy an'alarini davom ettirib ilk bor turkiy tilda “Xamsa” dostonini yaratdi. Navoiy Nizomiydan farqli ravishda o'z “Xamsa”sini turkiy tilda bitib, bu tilning qudratini namoyish etdi. Albatta, Navoiy “Xamsa” dostonini yaratar ekan Nizomiy dahosi

oldida, o'zini ulkan bir sinov turganini his etdi. Dostonlarning har muqaddimasida Nizomiyni faxr bilan tilga oldi, unga bo'lgan cheksiz hurmatini, ixlosini bayon etdi. U Nizomiyni o'ziga ustoz deb bildi. Navoiy bitgan:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,

Nizomiy panjasiga panja urmoq satrlarini bugun har bir ozarbayjon va o'zbek kishisi yoddan biladi desak yanglishmagan bo'lamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, XX asrning adog'ida ulkan imperiya barham topdi. Har ikki davlat birin-ketin mustaqillikka erishdi. Asriy orzular ushaldi. Buni, ayniqsa, millat ziyolilari quvonch bilan kutib olishdi. Istiqlool qatag'on qilingan shoir va yozuvchilarning, olimlarning badiiy va ilmiy merosini tiklash, ularni keng targ'ib qilish imkoniyatini berdi. Ko'plab noyob durdonalar qayta tiklandi, xalqqa qaytarildi.

Maqsud Shayxzodadan bizga ulkan meros qoldi. Uning she'riyati ko'ngillarni xushnud etishda davom etmoqda, dramalari sahnalarda qo'yilmoqda, olti asrki o'zbek va ozarbayjon adabiy aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. Kelgusida ham bu aloqalar davom etishiga va yangi sahifalar ochilishiga ishonamiz.

Adabiyotlar:

- 1.Naim Karimov. Maqsud Shayxzoda. Ma'naviy-biografik roman. – T.: “Sharq”, 2010.
- 2.Olmos Ulvining “Mustaqillik yillarida ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalari” O.SHofiev tarjimasi.“Tamaddun nuri” jurnali, 2017-yil 1-son, 62-70-b.
- 3.Quronov Dilmurod. “Adabiyot nazariyasi asoslari”. Toshkent – 2018. 248-b.